

RAQAMLI SOLIQ BOSHQARUVINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi bosh o'qituvchisi

Subxonova Tabassumxon Alijon qizi

To'xtasinova O'g'iloy Dilmurod qizi

Farg'ona ilg'or kasbiy mahorat texnikumi 2-24 guruh o'quvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirish zaruriyati, mavjud holat va rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalarning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda joriy etish imkoniyatlari baholanadi va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Soliq ma'murchiligi, raqamli soliq ma'murchiligi, soliq tizimini avtomatlashtirish, elektron hisobvaraqa-faktura (EHF), My.soliq.uz, soliq deklaratsiyasi, soliq nazorati, soliq islohotlari, soliq organlari raqamlashtiruvi, avtomatlashtirilgan soliq monitoringi, elektron soliq xizmatlari*

KIRISH

Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar soliq tizimini takomillashtirishning muhim omiliga aylanmoqda. Bugungi kunda raqamli soliq ma'murchiligi soliq tushumlarini ko'paytirish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byurokratik va korrupsion holatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bois O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmogda. Biroq ilg'or xorijiy tajribalarni to'liq o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari hali yetarlicha ochilmagan.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq ma'murchiligi tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, ayrim olimlar uni soliqlarni undirish bilan bog'liq jarayonlar majmui sifatida izohlasa, boshqalar uni minimal xarajat evaziga maksimal tushumga erishishga qaratilgan boshqaruv faoliyati sifatida talqin qiladilar. Yana bir qarashga ko'ra, soliq ma'murchiligi soliq organlarining huquqiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda, uni soliq tizimining boshqaruv mexanizmi sifatida baholash mumkin.

Raqamli soliq ma'murchiligi esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida soliqni boshqarish, nazorat qilish va hisobga olish jarayonlarini amalga oshirishni anglatadi. Bu tizim shaffoflikni ta'minlab, soliq yukining adolatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Xorijiy manbalarda soliq ma'murchiligi turlicha talqin etiladi: ayrimlar uni soliq organlarining kundalik faoliyati sifatida ko'rsa, boshqalar nazorat mexanizmi sifatida baholaydi. Yana bir guruh olimlar esa uni soliq boshqaruvi doirasidagi munosabatlar majmui deb hisoblaydi.

Rossiyada bu tushuncha bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida shakllangan bo'lib, 1990-yillarda ilmiy asoslangan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Xususan, M.T.Ospanov soliq ma'murchiligini davlat tomonidan belgilangan vakolatlar asosida amalga oshiriladigan boshqaruv tizimi sifatida ta'riflagan.

Raqamli texnologiyalar soliq tizimini modernizatsiya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Hozirgi davrda raqamli soliq ma'murchiligi soliq yig'implarining oshishi, xufiyona iqtisodiyotning qisqarishi, byurokratiya va korrupsiya holatlarining kamayishiga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekistonda ham raqamli soliq ma'murchiligi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Biroq, bu yo'nalishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish imkoniyatlari hali to'liq ochilmagan.

Jahon iqtisodiy rivojlanishida soliq sohasida turli xil fikrlar mavjud bo'lishi bilan birga, soliq ma'murchiligini xususida, uni talqin etish xususida ham turli xil fikrlar mavjud. Iqtisodiy adabiyotda soliq ma'murchiligining mohiyatini anglash bo'yicha bir-biridan farqlanuvchi qarashlar mavjud. Masalan, ingliz olimasi O.Noginaning fikriga ko'ra, —soliq ma'murchiligi soliqlarni undirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar majmuidir deb takidlab o'tgan. (4). Boshqa bir guruh iqtisodchilar, xususan amerikalik olim A.Teyt soliq ma'murchiligini barcha soliqlarni minimal xarajat qilib maksimal darajada yig'ib olishga qaratilgan tadbirlarning yig'indisi sifatida qaraydilar. Ayrim mutaxassislar soliq ma'murchiligining ko'rinishlaridan biri soliq organlarining huquqiy munosabatlari bilan bog'liq faoliyatidir deb hisoblaydilar. Umuman olganda soliq ma'murchiligini soliq tizimida o'ziga xos boshqarish mexanizmi sifatida ham qarash mumkin.

Soliq ma'murchiligi — bu davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliq munosabatlarini tartibga soluvchi boshqaruv tizimi bo'lib, davlatning soliq siyosatini amaliyotga tatbiq etish va uning samarali amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. U soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan holda, bu siyosatning hayotga tatbiq etilishida muhim vosita hisoblanadi.

Ya'ni, davlat soliq ma'murchiligi orqali soliq tizimi va soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tizimning roli yanada muhimlashib, alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Raqamli soliq ma'murchiligi - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda soliq boshqaruvi, nazorati va hisobdorligini amalga oshirish tizimidir. U soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Buning natijasida soliq ma'murchiligi xarajatlari kamayadi, soliq yuki adolatli taqsimlanadi.

Xorijiy manbalarda soliq ma'murchiligiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar uni soliq idoralarining kundalik faoliyati sifatida talqin etishsa, boshqalar soliq xizmatining byudjet tushumlarini ta'minlashdagi nazorat funksiyasi sifatida baholaydilar. Yana bir guruh olimlar esa soliq boshqaruvi doirasidagi munosabatlarning majmuasi sifatida qarashadi.

Shuningdek, ayrim davlatlar amaliyotida soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarining davlat boshqaruvi tizimining ajralmas elementi sifatida e'tirof etiladi.

Rossiyada "soliq ma'murchiligi" atamasi, shuningdek, soliq munosabatlari nazariyasi va metodologiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tish davri — aniqrog'i, sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin shakllana boshlagan. Bu yo'nalishda birinchi ilmiy izlanishlar 1990-yillarda paydo bo'lib, ayniqsa 1997 yilda iqtisodchi olim M.T. Ospanov tomonidan yozilgan "Soliq islohotlari va soliq munosabatlarini garmonizatsiyalash" nomli ilmiy ish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur asarida Ospanov "soliq ma'murchiligi" tushunchasiga aniqlik kiritib, quyidagicha ta'rif beradi:

"Soliq ma'murchiligi — bu davlat tomonidan soliq qonunchiligida belgilangan vakolatlar va mansabiy vazifalar doirasida amalga oshiriladigan soliq boshqaruvi tizimidir."

Bu ta'rif soliq ma'murchiligini faqat nazorat yoki texnik jarayon sifatida emas, balki keng qamrovli boshqaruv mexanizmi sifatida tushunishga asos yaratadi.

Soliq ma'murchiligi: O'zbekiston va xorijiy tajribaning taqqosli tahlili³¹

1-Jadval

1.	<p>O'zbekiston amaliyoti</p> <p>O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi keyingi yillarda izchil islohotlar orqali takomillashmoqda. Jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none">• Elektron soliq hisobotlari, onlayn nazorat-kassa mashinalari, E-Soliq mobil ilovasi kabi raqamli texnologiyalar joriy etildi.• Kameral (masofaviy) nazorat tizimi kengaytirildi, bu esa bevosita soliq tekshiruvlarining sonini kamaytirishga olib keldi.• Soliq to'lovchilar bilan ochiq muloqot, soliq xabardorligi, shaffoflik va profilaktika tamoyillariga asoslangan yondashuv kuchaytirildi.• Soliq ma'murchiligida tadbirkorlarni jazolashdan ko'ra, tushuntirish va ogohlantirish tamoyillari ustuvorlik qila boshladi. <p>Bu yondashuv O'zbekiston soliq ma'murchiligini zamonaviylashtirish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo'lidagi muhim qadamlar bo'ldi.</p>
2.	<p>Rossiya tajribasi</p> <ul style="list-style-type: none">• Rossiyada soliq ma'murchiligi 1990-yillarda shakllana boshlagan. Asosiy jihatlari:• Byurokratik tizim kuchli, nazorat va tekshiruv funksiyalari ilgari ustuvor bo'lgan.• So'nggi yillarda raqamlashtirish kuchaygan: "Nalogi.ru", "Soliq to'lovchi shaxsiy kabineti" kabi xizmatlar paydo bo'ldi.• Soliq nazorati yanada risklarga asoslangan tizimga o'tmoqda, ya'ni yuqori xavfli soliq to'lovchilarga e'tibor kuchaymoqda.• M.T. Ospanovning yondashuvi Rossiyada soliq boshqaruvini huquqiy va institutsional asosda shakllantirishda muhim rol o'ynadi.
3.	<p>AQSh va Yevropa tajribasi</p> <ul style="list-style-type: none">• AQShda soliq ma'murchiligi mustaqil va kuchli vakolatli organ – IRS (Internal Revenue Service) orqali amalga oshiriladi. U yerda soliq to'lovchilarning huquqlari qat'iy himoyalangan va hisobdorlik tamoyillari asosida ishlaydi.• Yevropa Ittifoqida soliq ma'murchiligi – iqtisodiy integratsiyalashuv kontekstida qaraladi. Ko'plab davlatlarda oddiylashtirilgan soliq rejimlari, avtomatik ma'lumot almashinuvi va soliq maslahati xizmati keng qo'llaniladi.

³¹ Muallif ishlanmasi

4.	Estoniya tajribasi Estoniya dunyodagi eng raqamlashtirilgan soliq tizimiga ega davlatlardan biridir. U yerda soliq to'lovchilar onlayn portallar orqali soliq hisobotlarini avtomatik tarzda topshirishadi, soliq tekshiruvlari esa real vaqt rejimida amalga oshiriladi.
5.	Janubiy Koreya tajribasi: Bu davlatda elektron hisob-fakturalar va mobil ilovalar orqali soliq nazorati kuchaytirilgan, natijada soliq intizomi ancha oshgan.

O'zbekiston soliq ma'murchiligi tizimi rivojlanishda bo'lib, Rossiya tajribasi bilan umumiy jihatlari mavjud — ayniqsa dastlabki islohot bosqichlarida. Biroq, so'nggi yillardagi islohotlar natijasida O'zbekiston asta-sekin G'arb davlatlari tajribasiga yaqinlashmoqda: ya'ni raqamlashtirish, xavfga asoslangan nazorat, va tadbirkor bilan hamkorlik tamoyillariga e'tibor kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga tushadigan soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lar hisobidan olinadigan soliqlar optimallashtirildi. Shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi pasaytirildi. Bular soliq tizimini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Xorijiy tajribaning O'zbekiston sharoitiga joriy etilishi quyidagi omillarga bog'liq:

- Qonunchilik moslashuvchanligi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash darajasi.

- Soliq to'lovchilarning raqamli savodxonligi.

- Infratuzilma va kiberxavfsizlik masalalari.

- Davlat xizmatlari bilan aholi o'rtasidagi ishonch darajasi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda bosqichma-bosqich raqamli soliq boshqaruvining ilg'or mexanizmlari joriy etilishi mumkin.

Soliq ma'murchiligining tub mohiyatini to'liq anglash uchun uning tarkibiy va funksional xususiyatlariga e'tibor qaratish zarur.

Soliq ma'murchiligining mazmunini ochib berishda

muhim o'rin tutuvchi asosiy jihatlari

2-Jadval

1.	Soliq ma'murchiligi - bu soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir. Soliq ma'murchiligi mazmunan soliq tizimida yuzaga keladigan munosabatlarni tashkil etish, yo'naltirish va nazorat qilish jarayonlarini ifodalaydi. Bu jihatdan uning asosida "boshqarish" tushunchasi yotadi. Shuningdek, bu tizim murakkab tuzilishga ega bo'lib, bir nechta tarkibiy elementlardan iborat bo'ladi (masalan, normativ hujjatlar, soliq organlari, texnik vositalar va boshqalar).
2.	Soliq ma'murchiligi - davlat soliq siyosatini hayotga tadbiq etuvchi vositadir. Soliq siyosatining amalda ro'yobga chiqishi, aynan soliq ma'murchiligi orqali ta'minlanadi. Shu sababli, u davlatning soliq siyosatida belgilangan strategik maqsad va yo'nalishlarni o'zida ifodalovchi va ularga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi.
3.	Soliq ma'murchiligi soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Soliq ma'murchiligi orqali soliq organlari o'rtasida vakolatlar bo'linadi, faoliyatlar muvofiqlashtiriladi va ularning yagona tizim sifatida ishlashi ta'minlanadi. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida bu funktsiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki u soliq boshqaruvining izchil va barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

4	Soliq ma'murchiligi o'z mohiyatini bajariladigan funksiyalar orqali namoyon qiladi. Soliq ma'murchiligiga umumiy boshqaruv tizimiga xos bo'lgan barcha funksiyalar (rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, tahlil, tartibga solish) tegishlidir. Bu funksiyalar orqali soliq munosabatlari samarali boshqariladi, soliq intizomi va ijrosi ta'minlanadi.
5	Soliq ma'murchiligi soliq huquqi normalariga asoslanadi. Soliq ma'murchiligi amalda soliq huquqi me'yorlarini qo'llash va ularni boshqaruv amaliyotida tatbiq etish vositasidir. Shu bilan birga, u soliq huquqining nazariy asoslarini mustahkamlab, soliq tizimi barqarorligini ta'minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.
6	Soliq munosabatlari – soliq ma'murchiligining asosiy predmeti hisoblanadi. Soliq ma'murchiligi bevosita davlat bilan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasidagi soliq munosabatlarini tartibga soladi. Bu munosabatlar soliq majburiyatlarini belgilash, ularni bajarish, nazorat qilish hamda qonunbuzarlik holatlarini aniqlash va bartaraf etish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Raqamli soliq ma'murchiligi O'zbekistonda samarali soliq boshqaruvini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy qilish quyidagi yo'nalishlarda foydali bo'ladi:

- Soliq jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish;
- Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini joriy qilish;
- Elektron xizmatlar sifati va raqamli ishonchni oshirish;
- Soliq to'lovchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni yo'lga qo'yish.

Kelajakda O'zbekistonda zamonaviy, shaffof va samarali raqamli soliq tizimini barpo etish uchun xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va milliy sharoitlarga moslashtirish zarur.

Adabiyotlar sharhi

Soliq ma'murchiligini samarali tashkil etishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, ahamiyati va roli bo'yicha asosiy tadqiqotlar o'tmishdagi taniqli olimlarning asarlarida o'z aksini topgan: J. Keyns, J. Milla, V. Petti, D. Rikardo, A. Smit va boshqalar, zamonaviy xorijiy nazariyotchilarning yetakchi ishlanmalari va T. Dai, A. Laffer, R. Lukas, R. Musgrave, A. Pigou, P. Samuelson, R. Solow kabi amaliyotchilar, shu bilan birga Stiglitz, M. Freemanlar soliq tizimida turli tajribalarni qo'llash bo'yicha ko'plab tajribalar o'rganib bugungi soliq tizimi rivojlanishiga yuksak iz qoldirgan. Soliq tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish masalalari bo'yicha Y. Ivanov, I. Lunina, A. Krisovatoy, A. Mayburov, A. Pogorletskiy asarlarida byudjet-soliq sohasida xorijiy tajriba va jahon rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

Soliq tizimini davlat boshqaruvining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim ilmiy yutuqlarga qaramay, byudjet va soliq sohasida quyidagilar muammolar mavjud:

Xorijiy tajribani o'rganish va undan amaliy foydalanishning dolzarb zarurati ichki va tashqi muhitning beqarorligi sharoitida soliq ma'murchiligi va soliq munosabatlarini optimallashtirish hamda uyg'unlashtirish maqsadlari I. Tkachenko, V. Sinchaka va boshqalar tomonidan tadqiqot ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yozishda tadqiqot natijalarimizdan ko'zlagan samarani olishimiz uchun, albatta tadqiqot mavzusi doirasida yetarlicha sifat va miqdoriy ma'lumotlar to'plashimiz kerak bo'ladi. Bu sifat va miqdoriy ma'lumotlarni birlamchi va ikkilamchi manbalardan to'playmiz. Soliq ma'murchiligini samarali tashkil etish xaqida yurtimiz va chet el olim, tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlarning elektron, hamda bosma nashrlarini to'plash tadqiqot mavzumizni nazariy jihatlarini yoritib berish uchun kerak bo'ladi.

Tahlil va natijalar

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib fiskal siyosatning uzoq muddatdagi fiskal barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida maqsadlari quyidagilar:

- konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;
- soliq, bojxona va budjet siyosatini JST talablariga uyg'unlashtirish;
- soliq ma'murchiligini takomillashtirish va uning samaradorligini yanada oshirish.

Soliq tizimini isloh qilish uni har tomonlama rivojlantirish borasida davlatimiz rahbari bir qancha qarorlar imzoladilar. Bunda asosiy g'oya tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik prinsiplariga asoslangan yangi soliq tizimini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ma'lumki bugungi kunda mamlakatimiz har tomonlama rivojlangan, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lgan demokratik davlatga aylanib bormoqda. Bu borada davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ilg'or g'oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda soliq sohasida ham mutlaqo yangi bo'lgan adolatli, shaffof va izchil hamda hamkorlik tamoyillariga amal qiladigan samarali tizim yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliqlar yukini kamaytirib, fuqarolar daromadini oshirish, pirovardida ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga izchil soliq ma'muriyatchiligini joriy etish orqali erishilmoqda

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli soliq ma'murchiligini joriy etish bo'yicha muayyan qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirganda hali foydalanilmagan salohiyat mavjud. Estoniya, Janubiy Koreya, AQSh kabi davlatlar raqamli soliq boshqaruvida yuqori darajadagi avtomatlashtirilgan va sun'iy intellektga asoslangan tizimlar orqali soliq yig'imining oshishiga, soliq intizomi va shaffoflikning kuchayishiga erishgan. O'zbekistonda esa bu borada texnologik infratuzilmaning cheklanganligi, soliq to'lovchilarning raqamli savodxonligi pastligi va axborot xavfsizligiga oid muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu boisdan, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Xalqaro ilg'or tajribalarni moslashtirish: Raqamli soliq tizimini samarali tashkil etishda Estoniya, AQSh va Koreya Respublikasi kabi davlatlar tajribasini o'rganib, O'zbekiston sharoitiga mos innovatsion modellarni amaliyotga joriy etish.

2. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish: Mintaqaviy tengsizlikni bartaraf etish uchun soliq organlari va foydalanuvchilar uchun barqaror internet va zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlash.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish: Soliq to'lovchilar orasida raqamli xizmatlardan foydalanish bo'yicha tushunchani kengaytirish uchun o'quv dasturlari va amaliy treninglarni tashkil etish.

4. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarini joriy etish: Soliq ma'lumotlarini tahlil qilishda avtomatlashtirishni kuchaytirish, soliqdan bo'yin tovlashni aniqlashda ilg'or texnologiyalardan foydalanish.

5. Soliq xodimlarining malakasini oshirish: Ularni zamonaviy raqamli platformalarda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlash orqali tizim samaradorligini oshirish.

6. Mobil ilovalar va qulay interfeyslar yaratish: Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish, ularda ishonch va soliq intizomini mustahkamlash uchun raqamli xizmatlarni yanada soddalashtirish.

7. Axborot xavfsizligini ta'minlash: Raqamli soliq tizimida ishtirok etuvchi barcha foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoyalovchi mustahkam kiberxavfsizlik mexanizmlarini joriy etish.

Shunday qilib, raqamli soliq ma'murchiligining samarali tashkil etilishi uchun xorijiy ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga mos ravishda bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu esa soliq ma'murchiligi tizimining ochiqligini, shaffofligini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2024-y
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri), www. Lex.uz.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " PQ- 4389-sonli Qarori.
4. Ногина О.А. Налоговый контроль: вопросы теории. Санкт-Петербург: Издательство "Питер", 2002.Author. Ногина, Оксана Аркадьевна.
- 5.Farole, T. (2011). "Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experiences". World Bank.
- 6.Zeng, D. Z. (2015). "Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa". World Bank.
- 7.www.soliq.uz (Soliq qo'mitasining rasmiy sayti);
- 8.www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
- 9.www.norma.uz (Normativ-huquqiy hujjatlar elektron bazasi);